

PUDRAT SHARTNOMASI (KONTRAKT)

Tuproqqal'a **tumani tibbiyot birlashmasi** keyingi o`rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladigan nomidan nizom asosida ish ko`ruvchi **A.Do'schanov** bir tomondan, keyingi urinlarda «Pudratchi» deb yuritiladigan **"HAZORASP SAVDO-QURILISH" MCHJ** nomidan nizom asosida ish ko`ruvchi **A.Babaev** ikkinchi tomondan «joriy ta'mirlash ishlarini bajarish» bo'yicha mazkur pudrat shartnomasini tuzdilar.

1. Mazkur shartnomada quyidagi ta'riflar qo'llaniladi:

-**ijro xujjatlari** – naturada bajarilgan ishlar yoki ishlarni bajarish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o'zgarishlarning ushbu ishchi chizmalarga muvofiqligi to'g'risidagi yozuvlar bilan birgalikda ob'ekt kurilishiga ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va o'rnatilgan asbob-uskunalarining sifatini va ishlarini bajarishda qo'llaniladigan materiallar, konstruksiyalar va detallarning sifatini tasdiklovchi boshqa xujjatlar, berkitiladigan ishlar tasdiklanganligi to'g'risidagi dalolatnomalar, ayrim mas'uliyatli konstruksiyalar oralik davrda qabul qilinishi to'g'risidagi dalolatnomalar, montaj kilingan asbob-uskunalarining yakka tartibdagi sinovi to'g'risidagi dalolatnomalar, ishlarni bajarish daftarlari xamda qurilish normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa xujjatlar;

-qurilish maydoni – mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga berilgan yer uchastkasi. Ob'ektning qurilish maydoni chegarasi ajratib qo'yiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilanadigan boshqa belgilar bilan belgilab qo'yiladi;

-**vaqtinchalik inshootlar** – Pudratchi tomonidan qurilish maydonida o'rnatiladigan va ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan xar qanday tipdagi vaqtinchalik binolar va inshootlar;

-**berkitiladigan ishlar** – sifati va aniqligini keyingi ishlar bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo'lmagan keyinchalik bajariladigan ishlar va konstruksiyalar bilan berkitiladigan ishlar;

-shartnoma narxini bo'lib chikish – ishlarning xar bir boskichi va yoki turlari qiymatini aniq belgilagan xolda shartnoma bo'yicha ob'ektning umumiy qiymatini bosqichlarga taqsimlash.

2. Pudratchi mazkur shartnoma shartlariga muvofiq **Tuproqqal'a tumani tibbiyot birlashmasiga qarashli Nurobod va Yakka chiqir mahalla tibbiyot punkitlari konteynerkarini** ko'zda tutilgan loyixa xujjatlari bo'yicha **joriy tamirlash ishlarini bajarish** majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa Pudratchiga joriy ta'mirlash ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

3. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi tomonidan bajariladigan, ishlar qiymati barcha soliqlar, yig'imlar, ajratmalar va pudratchining boshqa xarajatlarini o'z ichiga olgan xolda joriy narxlarda QQS bilan **103 600 000 (Bir yuz uch million olti yuz ming)** so'mni tashkil etadi.

4. Ishlar qiymati uzil-kesil xisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi xollar bundan mustasno:

- qurilish qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) xolatlari sabab bo'lganda;
- ishlar qiymati buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;
- ob'ektning qurilishi bir yildan ortiq muddatga o'zgartirilganda.

5. Qurilish muddati bir yildan ortiq bo'lganda ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarni aniklashtirish qonun xujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

6. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda, sanab o'tilgan o'zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

7. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi mazkur shartnomaning II bo'limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:

-barcha ishlarni mazkur shartnomaga muvofiq ishlarni bajarishda nazarda tutilgan xajmda va muddatlarda o'zining kuchlari yoki jalb qilingan kuchlar bilan bajarish xamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshirish;

- qurilish maydoniga zarur qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, qurilish texnikasini yetkazib berish, ularni qabul qilish, tushirish, omborga joylash va saqlashni ta'minlaydi;

- qurilish maydoni xududida vaqtinchalik inshootlar qurish;

- Buyurtmachini subpudratchilar bilan shartnomalar tuzilishi, shartnoma mavzusi, subpudratchining nomi va manzili to'g'risida xabardor qilish;

- qurilish maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaktida atrof muxitni, o'tkazilgan daraxtlarni va er uchastkasini muxofaza qilish bo'yicha zarur tadbirlar bajarilishini ta'minlash, shuniingdek yoritish chiroqlari o'rnatish;

- qurilish tavakkalchiliklarini sug'urta qilish;

- mazkur shartnoma bo'yicha obyektни foydalanishga qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab bir oy muddatda qurilish maydonini o'ziga tegishli qurilish mashinalari va asbob – uskunolari, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlar konstruksiyalar xamda vaqtinchalik binolardan bo'shatish;

- qurilish maydoni qo'riqlanishini ta'minlash;

- qurilishda tavakkalchilik sug'urtasi uchun belgilangan summaga sug'urta tashkilotlaridan biri bilan tavakkalchilik sug'urtasi to'g'risida shartnoma tuzadi va sug'urta shartnomasi bilan sug'urta polisini byurtmachiga taqdim qiladi.

-mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'liq xajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

8. Pudratchi mavjudligini kafolatlagan uzining 20% ga teng bo'lgan va unga xizmat kursatuvchi bank tomonidan berilishi kafolatlangan 20% aylanma mablaglarini mazkur shartnomada ko'zda tutilgan ob'ekt xarajatlari uchun umumli ishlatish majburiyatini oladi.

9. Pudratchi ob'ektни foydalanishga topshirish uchun Buyurtmachiga barcha ishlar bajarilganini isbotlovchi xujjatlarni (ispolnitelnaya dokumentatsiya) tulik xajmda takdim kiladi.

10. Pudratchi mazkur shartnoma buyicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan va subpudratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi xamda ob'ektning foydalanishga tayyor xolda topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida tulik mulkiy javob beradi.

MAJBURIYATLARI

11. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi:

- mazkur shartnomaga muvofiq ishlarni bajarish uchun yarakli bo'lgan qurilish maydonini ob'ekt qurilishi va qurilish tugallangungacha bo'lgan davrga dalolatnoma bo'yicha Pudratchiga berish;

- ishlar bajarilishi ustidan doimiy arxitektura-qurilish nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funksiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash;

- Pudratchining barcha murojaatlarini un kun muddatda ko'rib chikish va qaror qabul qilish;

- Pudratchiga ishlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijro xujjatlari ro'yxatini taqdim etish;

- mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq xajmda bajarish majburiyatlarini oladi;

12. Buyurtmachi mazkur shartnomada ko'zda tutilgan o'z majburiyatlarini bajarmasa yoki yetarli tarzda bajarmasa pudratchi oldida tulik mulkiy javob beradi.

13. SHartnoma G'aznachilik bo'linmalaridan ro'yxatdan o'tgandan kundan boshlab konuniy kuchga kiradi.

14. Pudratchi mazkur shartnomada kuzda tutilgan loyixa xujjatlari bo'yicha joriy tamirlash ishlarini bajaradi.

15. Tamirlash ishlari bajarish muddati 20 kalendar kunni tashkil etadi.

O'LOVLAR VA XISOB–KITOBLAR

16. SHartnoma bo'yicha o'zaro xisob-kitoblar milliy valyuta - «sumda» qilinadi.

17. Buyurtmachi mazkur shartnoma bo'yicha ishlar umumiy joriy kiymatining 30% mikdorida avans utkazadi, bu **31 080 000 (O'ttiz bir million sakson ming)** so'mni tashkil etadi.

18. Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga avans berish va joriy moliyalashtirish uchun byudjetdan maksadli berilgan mablaglar uch banka kunida moliyalashtirish va ishlarni bajarish jadvali asosida amalga oshiriladi.

19. Buyurtmachi tamonidan joriy moliyalashtirish bajarilgan ishlar xajmi va sifati tekshirilib qabul qilingandan keyin haqiqiy bajarilgan ishlar qiymatidan berilgan avans summasini proporsional ushlab qolgan xolda moliyalashtirish jadvali bo'yicha amalga oshiradi.

20. Pudratchining xisob rakamiga tushadigan mablaglar ushbu ob'ekt qurilishi xarajatlariga, shuningdek ta'minotchilarga, ob'ekt qurilishiga zarur bo'lgan materiallar, texnika resurslari, mexnatga xaq to'lash, ob'ekt

qurilishida ishtirok etayotgan yordamchi tashkilotlarga to'lash uchun va Ushbu ob'ekt qurilishining boshqa xarajatlariga qat'iy sarflanadi.

21. Pudratchi joriy moliyalashtirish uchun xisobot o'yning oxirgi kunigacha va yakuniy moliyalashtirish uchun xisob kitob uchun qurilish montaj ishlari miqdori, xarajatlari tug'risidagi «Bajarilgan ishlar qiymati tug'risidagi ma'lumotnoma xisob-varak-fakturani» o'zi tuzib taqdim qiladi. Buyurtmachi bajarilgan qurilish-montaj ishlarining miqdori, sifati va xarajatlarini tekshirib qabul qilib imzolaydi.

22. Buyurtmachiga joriy moliyalashtirish va yakuniy xisob-kitob uchun, bajarilgan qurilish-montaj ishlarini miqdori, sifati va xarajatlari tekshiruvidan so'ng Pudratchi tomonidan tuziladigan va Buyurtmachi tomonidan qabul qilib imzo chekiladigan «Bajarilgan ishlar qiymati to'g'risidagi ma'lumotnoma-xisob-varak-faktura» asos bo'ladi.

23. Pudratchi ob'ekt foydalanishga topshirilgunga qadar mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektga mulk xuquqini o'zida saqlaydi. Ob'ekt Buyurtmachiga topshirgunga qadar ob'ektning tasodifiy yo'q qilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida bo'ladi.

24. Buyurtmachi qurilish maydonida o'z vakilini – texnik auditorni tayinlaydi, u Buyurtmachining nomidan bajarilayotgan ishlar sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek Pudratchi tomonidan foydalaniladigan materiallar va asbob-uskunalarining shartnoma shartlariga va ish xujjatlariga muvofikligini tekshiradi.

25. Texnik auditor ishlar bajarilishining va shartnomaning butun davri mobaynida ishlarning barcha turlari bilan to'siksiz tanishish xuquqiga egadir.

26. Pudratchi texnik auditorni ishlash uchun joy bilan ta'minlaydi. Texnik auditor pudratchi tomonidan o'tkaziladigan qurilish maydonida ishlarni amalga oshirish chogida paydo bo'luvchi masalalarni xal qilish bo'yicha yig'ilishlarda muntazam ravishda qatnashadi.

27. Pudratchi ishlarni bajarish loyixasiga va mazkur shartnomaning VI-bo'limida ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiqlashtirilgan o'z rejasi va ish jadvaliga binoan ob'ektda ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.

28. Pudratchi Buyurtmachining manfaatlariga jiddiy ta'sir qilmaydigan ish xujjatlaridan mayda chetga chiqishlarni Buyurtmachining rozilgisiz amalga oshirsa, u agar bularning qurilish sifatiga ta'sir etmaganligini isbotlasa javobgar xisoblanmaydi.

29. Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning subpudratchilari tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniklasa, u xolda Pudratchi uz kuchlari bilan va qurilish qiymatini ko'paytirmasdan ushbu ishlarni ularni zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir.

Agar Pudratchi sifatsiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatlarda tuzata olmasa, Pudratchi ularni tuzatishning kechiikishi okibatida yetkazilgan zararlarni Buyurtmachiga to'laydi.

30. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallangungacha Pudratchi ishlarni bajarish daftarini yuritadi. Daftarda butun ishlarni borishi, Buyurtmachi va Pudratchining o'zaro munosabatlarida axamiyatga ega bo'lgan xollar va xolatlar (ishlarni boshlanishi va tamom bo'lishi sanasi, materiallar, asbob-uskunalar berilishi, xizmatlar ko'rsatilishi sanasi, ishlarni qabul qilib olinishi, o'tkazilgan sinovlar, materiallar uz vaktida yetkazib berilmasligi bilan bog'lik to'xtab qolishlar, qurilish texnikasining ishdan chiqishi tug'risidagi ma'lumotlar, shuningdek qurilishni tugallashning uzil-kesil muddatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlar) aks ettiriladi.

Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining qaydlaridan qonikmasa, u xolda ishlarni bajarish daftarida uz fikrini bayon qiladi.

Pudratchi daftarda Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda kursatilgan kamchiliklarni 3 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

YENGIB BO'LMAYDIGAN KUCH (FORS MAJOR) XOLATLARI.

31. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki tuliq bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshka yengib bulmaydigan kuch xolatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu xolatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki tuliq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch xolatlari amal qilgan, shuningdek ushbu xolatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

32. Agar yengib bo'lmaydigan kuch xolatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u xolda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar qurilishini muxokama qiladilar.

33. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u xolda tomonlarning xar biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga xaqlidir.

34. Pudratchi:

- barcha ishlarni to'liq xajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini;
- loyixa xujjatlariga xamda qurilish me'yorlari, qoidalar va texnik shartlariga muvofiq barcha ishlarni bajarish sifatini;
- o'zi tomonidan qurilish uchun qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiya va tizimlar sifatini, ularning loyixa xujjatlarida ko'rsatilgan sertifikatsiyalarga, davlat standartlariga xamda texnik shartlarga muvofiqqligini;
- ishlarni qabul qilish va ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf qilishni;
- ob'ektdan foydalanilganda muxandislik tizimlari va uskunalarining foydalanish koidalariga muvofiqqligini kafolatlaydi.

Mavjud nuqsonlar va ularning bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomasida qayd etiladi.

Agar Pudratchi bajarilgan ishlardagi nuqsonlar va chala ishlarni, jumladan uskunalarining kamchiliklarini dalolatnomada kursatilgan muddat ichida bartaraf etmasa, u xolda Buyurtmachi mazkur shartnomaning umumiy summasini 5% miqdorida jarima solish xuquqiga ega.

BEKOR QILISH.

35. Buyurtmachi:

- shartnoma kuchga kirgandan keyin joriy ta'mirlash boshlanishi Buyurtmachiga bog'lik bo'lmagan sabablarga ko'ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda;
 - ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortiq muddatga ko'paygan xolda, Pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda;
 - Pudratchi tomonidan shartnoma shartlari qurilish me'yorlari va qoidalarida nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;
- konun xujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish xuquqiga ega.

36. Pudratchi:

- ishlarning bajarilishi Pudratchiga bog'lik bo'lmagan sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan ikki oydan ortiq muddatga to'xtatib qo'yilganda;
 - Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari umuman bajarilmaganda;
- konun xujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish xuquqiga ega.

37. Shartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Pudratchining qo'shma qaroriga ko'ra tugallanmagan qurilish bir oy muddatda Buyurtmachiga beriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlar qiymatini Pudratchiga to'laydi.

38. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnoma yuboradi.

39. Shartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

40. Shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l quyilmaydi, konun xujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan xollar bundan mustasno.

41. Mazkur shartnomada ko'zda tutilgan va tegishli ilovalarda ko'rsatilgan majburiyatlarini bajarmaganligi yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda Buyurtmachi Pudratchi oldida quyidagi xollarda javobgar bo'ladi va:

- belgilangan muddatda ob'ektni ish boshlash uchun pudratchiga topshirmasa dalolatnoma bo'yicha buning okibatida ishlarni bajarish jadvalida bajarish ko'zda tutilgan ishlarning bajarilmagan qismining 5% miqdorida jarima to'laydi;

- buyurtmachining xisob raqamiga maqsadli moliyalashtirish uchun tushgan pul mablag'larini uch banka kunida sababsiz pudratchining xisob rakamiga o'tkazib bermasa ushlab turilgan summaning 5% miqdorida jarima to'laydi;

- shartnomaga muvofiq ishlarni bajarish jadvali bo'yicha bajarilgan ishlar xajmini asossiz ravishda qabul qilib tasdiqlashdan bosh tortgani uchun ushbu qabul qilish, tasdiqlashdan bosh tortgan summaning 5% miqdorida jarima to'laydi;

- shartnoma shartlariga muvofiq tayyor xolda qabul qilish uchun taqdim qilingan ob'ektni asossiz ravishda qabul qilishdan bosh tortsa shartnoma qiymatining 5% miqdorida jarima to'laydi;

42. Mazkur shartnomada ko'zda tutilgan va tegishli ilovalarda ko'rsatilgan majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda Pudratchi Buyurtmachi oldida quyidagi xollarda mulkiy javobgar bo'ladi va:

-Ishlarni bajarish jadvalida belgilangandan kam xajmda ishlarni bajarsa, majburiyatlarning bajarilmagan qismidan xar kechiktirilgan kun uchun 0.5% miqdorda penya to'laydi.

- Ishlarni «ishlarni bajarish jadvalida» belgilangan miqdorda bajarib tegishli tartibdagi ma'lumotlar bilan xisobot oyining oxirgi kuniga qadar tasdiqlatmasa «ishlarni bajarish jadvalida» belgilangan ishlar qiymatining 5% miqdorida jarima to'laydi;

- Ishlarni «ishlarni bajarish jadvalida» belgilangan miqdordan kam bajarsa, bajarilmagan qismining 5% miqdorida jarima to'laydi;

- ob'ektni shartnomada belgilangan muddatda tayyor xolda foydalanishga topshirmasa shartnoma qiymatining 5% miqdorida jarima to'laydi;

- Buyurtmachi, nazoratchi, foydalanuvchi tashkilotlar va ishchi komissiyasi tamonidan aniklangan kamchiliklar, nuqsonlar va sifatsiz bajarilgan ishlarni belgilangan (un kundan ortiq bo'lmagan) muddatda bartaraf qilmasa ushbu aniqlangan kamchiliklar, nuqsonlar va sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 5% miqdorida jarima to'laydi.

43. Agarda tomonlardan biri o'z rekvizitlarini shu jumladan yuridik va pochta manzillarini, telefon rakamlarini, korxona atamasi yoki maqomini noto'g'ri bersa va o'zgarganligi to'g'risidagi ma'lumotni uch qalendar kunda ikkinchi tamonga yozma xabar bermasa aybdor tomon ikkinchi tomonga shartnoma baxosining 0.1% miqdorida jarima to'laydi.

44. Bir tomonning aybi bilan shartnomani bekor qilishga to'g'ri kelsa, aybdor tomon ikkinchi tamonga barcha zararlarni qoplaydi, amaldagi konunlarda belgilangan tartibda.

45. Tamonlarning mulkiy javobgarlikka tortilib tulaydigan neustoyka, shtraf va penyalari shartnoma qiymatining 30% oshmasligi kerak.

46. Tamonlar neustoyka, jarima, penya kabi mulkiy talablarini dalolatnoma asosida to'lov talabnomasi bo'yicha akseptsiz amalga oshirishga xaqlidir.

47. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda yoki o'zgartirishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan barcha nizoli masalalarni tomonlar muxokama bilan kelishuvga erishmasalar, u xolda ular konun xujjatlarida belgilangan tartibda Sudga murojat qilishlari mumkin.

XV.TOMONLARNING KORRUPTSIYAGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA MAJBURIYATLARI.

48. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda tomonlar korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qoidalarga, shu jumladan amaldagi qonunlarga rioya etilishini ta'minlaydi; ya'ni tomonlar bir-biriga yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki pora berishda vositachilik qilish, moddiy yoki nomoddiy naf olishdan tiyilishi lozim. Tomonlar ushbu harakatlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinishini kafolatlaydi.

49. Tomonlar korruptsiyaga qarshi qoidalar buzilganda yoki asosli gumonlar yuzaga kelganda darhol yozma ravishda (elektron pochta orqali) yoki ishonch telefoni orqali bir-birini xabardor qilish majburiyatini oladi. Bunda tomonlar yuzaga kelgan holatga oydinlik kiritish maqsadida yozma izoh talab qilish huquqiga ega va murojaatni olgan tomon 10 (o'n) ish kuni mobaynida tushintirish berishi yoki o'z fikrini bildirishi mumkin.

50. Mazkur bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan belgilangan muddatda korruption xavf-xatar bartaraf etilmasa, tomonlar amalga oshirgan choralar korruption holatni pasayishiga olib kelmasa, boshqa tomon shartnomani bekor qilish huquqiga ega yoki uning ijrosini to'xtatib qo'yishi mumkin.

XVI. ALOXIDA SHARTLAR

51. Mazkur shartnoma imzolangandan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yo'qotadi.

52. Pudratchi qurilish ob'ektiga yoki uning aloxida kismlariga tegishli ish xujjatlarini Buyurtmachining yozma ruxsatisiz, subpudratchilardan tashkari, biron-bir uchinchi tomonga sotish yoki berish xuquqiga ega bo'lmaydi.

53. Mazkur shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirish va qushimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolashgan bo'lsa, xaqiqiy xisoblanadi.

54. Buyurtmachi bilan Pudratchi urtasidagi mazkur shartnomadan kelib chikmaydigan yangi majburiyatlar paydo bo'lishiga olib keladigan xar qanday axdlashuvni tomonlar mazkur shartnomaga qushimchalar yoki o'zgartirishlar shaklida yozma ravishda tasdiklashi kerak.

55. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlar yakunlangandan keyin qurilish maydonida o'ziga tegishli mulkni qoldirsa, u xolda Buyurtmachi Pudratchi qurilish maydonini ozod qilish sanasigacha bajarilgan ishlar uchun unga xak tulashni kechiktirishga xaqlidir.

56. Mazkur shartnomaning joriy narxlardagi kelishilgan summasi me'yoriy-qonun xujjatlariga Q.Q.S. tug'risida o'zgartirishlar kiritilsa qayta ko'rib chiqiladi.

57. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha xollar uchun amaldagi qonun xujjatlari qullaniladi.

58. Mazkur shartnoma Byudjet kodeksining 122-moddasiga asosan G'aznachilik bo'linmalaridan ro'yxatdan o'tgandan qundan boshlab qonuniy kuchga kiradi.

58. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuzildi.

59. Shartnomani amal qilish muddati «31» Dekabr 2022 yilgacha.

XVI. TOMONLARNING BANK REKVIZITLARI VA YURIDIK MANZILLARI.

PUDRATCHI:

BUYURTMACHI:

"HAZORASP SAVDO-QURILISH" MCHJ	Tuhroqqal'a tumani tibbiyot birlashmasi
Manzili: Tuproqqal'a tumani Muxabbat maxallasi	Manzili: Tuprokkala tumani
Tel/faks: 97-512-03-46	Tel/faks:
h/r: 20208000800956529001	sh/hr: 100022860332217073101054001
INN: 305945118	INN: 200209040
OKONX: 61110	MFO : 00014 INN: 201122919
Bank: Xozarasp t Agrobank	Moliya Vazirligi G'aznachiligi
MFO: 00558	G'azna x/v : 23402000300100001010
	Bank : Markaziy bank Toshkent sh XKKM

M.O'  A. Babaev

M.O'  A. Do'schanov

	Hujjat elektron raqamli imzo orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun QR Code ni skanerlang.	
	Imzolovchi F.I.SH.	ATABEK DUSCHANOV ABDUKARIMOVICH
	Imzolangan sana	17.12.2022 11:17
	Hujjat kodi	ZU4204607123
	Hulosa kodi	EB8271485452

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RI SIDA HUQUQIY XULOSA

EB8271485452

1. Loyihaning turi : Shartnoma

2. Loyihaning nomi: Tuproqqal'a tumani tibbiyot birlashmasi keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladigan nomidan nizom asosida ish ko'ruvchi A.Do'schanov bir tomondan, «Pudratchi» deb yuritiladigan "HAZORASP SAVDO-QURILISH" MCHJ nomidan nizom asosida ish ko'ruvchi A.Babaev ikkinchi tomondan 103 600 000 (Bir yuz uch million olti yuz ming) so'mni tashkil etuvchi Tuproqqal'a tumani tibbiyot birlashmasiga qarashli Nurobod va Yakka chiqir mahalla tibbiyot punktlari konteynerkarini ko'zda tutilgan loyixa xujjatlari bo'yicha «joriy ta'mirlash ishlarini bajarish» bo'yicha pudrat shartnomasini tuzish to'g'risida

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: TUPROQQAL'A TUMANI TIBBIYOT BIRLASHMASI tomonidan 16.12.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Tuproqqal'a tumani
yuridik markazi
markaz rahbari:**



X.A.ISKANDAROV

16.12.2022

17.12.2022 йилдаги **2026-12-218-ТВ/2022-son**
шартномага
Илова №1

Жадвал

Танлов комиссиясининг қарорига асосан ютиб олинган объектнинг ойлар бўйича молиялаштирилиши ва ишларни бажариш графиги

№	Номи	КОД:	Жами молиялаштирилган маблаг	2022 йил ойлар бўйича молиялаштириш ва бажариш											
				1 чорак			2 чорак			3 чорак			4 чорак		
				январь	февраль	март	апрель	май	июнь	июль	август	сентябрь	октябрь	ноябрь	декабрь
1	Аванс (30%)		31080000												
	Тупроққалъа тумани tibbiyot birlashmasiga qarashli Nurobod va Yulka chiqir mahalla tibbiyot punktlari konteynerlarini joylash tiraklarini	42-32-200	72520000												103600000
	Жами:		103 600 000												103600000

Тупроққалъа тумани Тиббиёт бirlashмаси

Буюртмачи:

А.Дусчанов



"HAZORASP SAVDO-QURILISH" MCHJ

Пудратчи:

А.Бабаев

